

## **Fassikulyatsiya va fibrillyatsiyalar**

Atrofiyaga uchrayotgan muskulda fibrillyatsiya va fassikulyatsiyalar kuzatiladi. Muskul tolalari tebranishiga **fibrillyatsiya**, muskul tutamlari tebranishiga **fassikulyatsiya** deyiladi. Bu tebranishlar normada kuzatilmaydi.

Fibrillyatsiya va fassikulyatsiyalarning mavjudligi periferik motoneyron ta'sirlanishidan darak beradi. Atrofiyaga uchrayotgan muskullarga bolg'acha bilan urib fibrillyatsiya va fassikulyatsiyalarni oson chaqirish mumkin. Oldingi shox patologiyasi uchun fibrillyar, oldingi ildizcha patologiyasi uchun fassikulyar tebranishlar xos. Chunki oldingi shoxda periferik motoneyronlar biroz yoyilib joylashgan, oldingi ildizchada esa tolalar zich joylashib o'tgan.

**Manba: © Z. Ibodullayev. Nevrologiya. Qo`llanma. Toshkent, 2017., 404 b.**

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © [www.asab.uz](http://www.asab.uz)